E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

QISHLOQ XO‘JALIGI YERLARI MONITORINGINI YURITISHDA RAQAMLI KARTALARNING O‘RNI VA ULARNING TUZISH USLUBINI TAKOMILLASHTIRISH

Tursunov Azamat Anvar o‘g‘li

Stj.o’qituvchisi “TIQXMMI” MTU Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

Davlatov Abdullajon

talabasi “TIQXMMI” MTU Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

Annotasiya

Mamlakatimizda ham yer fondidan foydalanishni tashkil etishda yer tuzish, yer kadastri va yer monitoringi ma’lumotlaridan foydalanish orqali yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo’naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasida amaldagi qonun hujjatlarida yerlarning holatini yaxshilash va ularni muhofaza qilish davlat yer tuzilmalarining muhim vazifasi etib belgilangan, yerlardan oqilona foydalanishga va tuproq unumdorligini oshirish va tiklashga alohida e’tibor qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 14-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 23-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida Yer monitoringi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 496-sonli qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining barcha yerlari, ularning huquqiy tartibi, foydalanish maqsadi va holatidan qat’iy nazar monitoring obyekti hisoblanadi.Yer monitoringi yer fondi toifalariga muvofiq yerlardan foydalanish maqsadini hisobga olgan holda olib boriladi. Qishloq xo‘jaligi yerlarida monitoring olib borish yerning joylashuvi, tuproq sifati va unumdorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi salbiy omillar hamda iqlim sharoitlarining qishloq xo‘jaligi yerlari unumdorligiga alohida ta’sir ko‘rsatuvchi jarayonlarni hisobga olish kabi imkoniyatlarni yaratadi. Insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida qishloq xo‘jalik ekin yerlari butun dunyo bo‘yicha qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari yetishtiriladigan asosiy resurs hisoblanadi. Shu munosabat bilan qishloq xo‘jalik toifasidagi yerlarni monitoring qilish jarayonida yerlardan oqilona va samarali foydalanishni inobatga olgan holda davlatning asosiy iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik munosabatlaridagi normativ-huquqiy holatlar tartibga solinishi kerak.

Kalit so’zlar

Qishloq xo’jaligi,yer monitoringi,yer kadastri,raqamli kartalar,yer fondi.

Yer monitoringini yuritishda kosmik apparatlar va uchuvchisiz uchar qurilmalar yordamida olingan yuqori aniqlikdagi suratlar asosida belgilangan davrlar uchun tezkor ortofotoxaritalar yaratiladi.

- Dala kuzatuv ma’lumotlari maxsus mobil kompyuter qurilmalari (ultrabuk, planshet) yordamida amalga oshiriladi. Yer maydoni o‘lchamlari va monitoring maqsadini hisobga olib, raqamli ortofotoxaritalar yaratiladi.

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

- Qishloq xo‘jaligi ekinlari holatini aniqlashda vegetatsion indeks (NDVI)ning o‘rtacha qiymati olinadi.

- Raqamli mavzuli xaritalar va masofadan zondlash uslubiyoti asosida yer monitoringini prognozlash (bashoratlash) yuritiladi.

- Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar monitoringini axborot bilan ta’minlashda o‘tkazilgan tuproq, geobotanik va boshqa tadqiqotlar, tuproq agroximkartogrammalari, tuproq sho‘rlanish xaritalari, yerdan foydalanuvchilarni ro‘yxatga olish, yerlarni miqdor jihatdan hisobga olish, tuproq bonitirovkasi va yerlarning normativ qiymati ma’lumotlari bazasidan foydalaniladi.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar monitoringini axborot bilan ta’minlashda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim.
- Yerlarning holatini aks ettiruvchi ma’lumot sifatida yer qa’ridan tashqari, ular ta’sir qiladigan turli jarayonlarni aniqlash va o‘rganish uchun ushbu jarayonlarning sabablari va dinamikasini o‘rganish vazifasi bo‘lgan yer axborot tizimidan qo‘shimcha ma’lumot talab etiladi. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar monitoringi avtomatlashtirilgan axborot tizimidan foydalangan holda amalga oshiriladi.

- Yer monitoringini axborot bilan ta’minlash respublika qishloq xo‘jaligi yerlarini boshqarish maqsadida kuzatuv tadqiqot natijalarini yig‘ish, to‘plash va tahlil qilish orqali yer fondi toifalarining holati to‘g‘risida tezkor ma’lumotlarni olishga qaratilgan.

- Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar monitoringini axborot bilan ta’minlash ko‘p bosqichli dasturli avtomatlashtirilgan tizimidan iborat bo‘lib, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

a) ma’lumot manbaalari;

b) ma’lumotlarning yuritilishi bo‘yicha dasturiy ta’minot asoslari;

v) yagona yer axboroti GAT bazasi;

g) dasturiy ta’minotdan foydalangan holda tashqi ma’lumotlar bazalari bilan integratsiyalash.

- Maxsus GAT dasturlarida (ArcGIS, QGIS, ENVI, Erdas Imagine) ortofotoxaritalardan foydalangan holda dastlabki, oraliq va yakuniy yer monitoringi ishlari yuritiladi.

Taklif va tavsiyalar. Milliy boyligimiz hisoblangan yerdan unumli va samarali foydalanishda monitoring yuritish, raqamli kartalarning o’rni va ularni tuzish uslubini takomillashtirish;

- yoppasiga har xil asossiz sabablarga ko‘ra qishloq xo‘jaligi yerlari maydoni hajmi qisqarishining oldi olish;
- yerlardan tabaqalashtirilgan holda foydalanish, ya’ni qishloq xo‘jaligi ekinlarini to‘g‘ri joylashtirish imkoniyatini yaratish;
- tuproq unumdorligini pasaytiruvchi omillarni aniqlash, ularning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarini belgilash;

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

- raqamli iqtisodiyot sharoitida yer monitoringi ma'lumotlari asosida respublika qishloq xo'jaligi yerlarini boshqarish.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi - T.: O'zbekiston, 1998
2. Vazirlar Mahkamasining 2019 yilning 9 yanvar «Fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari yer maydonlarini maqbullashtirish hamda qishloq xo'jaligi ekin yerlaridan samarali foydalanishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 14-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-yanvardagi qarori "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda monitoring ishlarini amalga oshirish, yerlarni muhofaza qilish va yer tuzish faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 22-sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi "O'zbekiston respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-sonli farmoni.
5. S.Avezbayev,S.N.Volkov Yer tuzishni loyihalash O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashryoti Toshkent-2006.
6. 6.Mirzaliev T., Safarov E., Egamberdiev A, Qoraboev J. Kartashunoslik.
7. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2012.
8. 7.Safarov E., Musaev I., Abdurahmanov X. Geografik axborot tizimlari va
9. texnologiyalari. –Toshkent, 2008.
10. 8.O'zbekiston Respublikasining yer resurslari holati to'g'risida Milliy hisoboti.,
11. T., Davlat soliq qo'mitasi xuzuridagi Kadastr agentligi, 2021y.

WORDLY KNOWLEDGE